

**TILGA O'RGATISH JARAYONIDA TA'LIMY VA TARBIYAVIY
KOMPITENSIYALARNI TARBIYALANUVCHILARDA XORIY TAJRIBALARI
ASOSIDA SHAKLLANTRISH**

Boymirzayeva Dilafuz Pardayevna

Turon Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ikkinchi tilga o'rgatishda tarbiyalanuvchilarning ta'limiy va tarbiyaviy kompetensiyalarni tarbiyalanuvchilarda xorij tajribalari asosida shakllantirish ta'limiy faoliyatlarni samarali tashki qilish haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: В статье рассматривается эффективная реализация образовательной деятельности по формированию учебно-воспитательных компетенций обучающихся на основе зарубежного опыта обучения второму языку.

Abstract: The article discusses the effective implementation of educational activities in the formation of students' educational and educational competencies based on foreign experience in teaching a second language.

Kalit so'zlar: tarbiyalanuvchi, pedagog, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, kompetensiya turlari, ta'lim jarayonlar.

Ключевые слова: обучаемый, педагог, образование, обучение, компетентность, виды кокомпетентности, образовательные процессы.

Key words: trainee, pedagogue, education, training, competence, types of co-competence, educational processes.

Jahon globallashuvi jarayonlari, davlatlar, millatlar va madaniyatlararo munosabatlarning misli ko'rilmagan darajada kengayishi turli xalqlar vakillari o'rtasidagi to'laqonli muloqot masalasini dolzarb qilib qo'ydi. To'liq muloqot, birinchi navbatda, til munosabatlarini o'z ichiga oladi. Chet tilini bilish bilim darajasini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, atrofdagi dunyoni tolerantroq idrok etishga hissa qo'shadi. Mamlakatlarning o'zaro rivojlanishi, tajriba almashinishida til muhim o'rinni egallaydi. Shunday ekan, oxirgi yillar mobaynida tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Til ikki davlat o'rtasidagi eng muhim diplomatik aloqalarni olib borishdagi asosiy qurol hisoblanadi. Tarixdan ham ma'lumki, qo'shni yoki uzoq davlatlar o'rtasida mustahkam aloqani o'rnatish uchun elchilarga birinchi navbatda yuklatiladigan vazifa bu, albatta, o'sha davlat tilini o'rganish hamda kuchli diplomatik harakatlar orqali mustahkam aloqani o'rnatish bo'lgan.

Kompetensiya nima? Kompetensiya (lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman" ma'nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u tarbiyalanuvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – tarbiyalanuvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim tarbiyalanuvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash,

sogʻlom raqobat hamda umummadaniy koʻnikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, taʼlimda har bir oʻquv fanini oʻzlashtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda, shu fanning oʻziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va taʼlimining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab oʻqituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo taʼlimini yangilashning asosiy yoʻnalishi taʼlim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli koʻra olish, unda tizimli faoliyat koʻrsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Taʼlimiy va tarbiyaviy kompetensiyalar tushunchasi

- **Taʼlimiy kompetensiyalar** – tarbiyalanuvchilarning oʻzlashtirish, muammolarni hal qilish, fikrlash, tahlil qilish, muloqot qilish va raqamli savodxonlik kabi koʻnikmalaridir.
- **Tarbiyaviy kompetensiyalar** – axloqiy qarashlar, madaniy qadriyatlar, vatanparvarlik, tolerantlik va ijtimoiy masʼuliyatni anglash koʻnikmalarini oʻz ichiga oladi.

Kasbiy kompetensiya

- ✚ Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega boʻlish;
 - ✚ Oʻz ustida ishlash;
 - ✚ Taʼlim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani oʻrnata olish;
- tarbiyalanuvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- ✚ Tarbiyalanuvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
 - ✚ AKTni bilishi;
 - ✚ Taʼlim muhitiga yangilik kiritishi;
 - ✚ Oʻz fanini mukammal bilishi;
 - ✚ Xorijiy tillardan birini bilishi.

Markaziy Osiyoda roʻy berayotgan maʼnaviy, madaniy, dunyoqarashdagi oʻzgarishlar ayrim jihatlari bilan Sharq mamlakatlarining mustaqillikka chiqqan davrdagi holatini, Gʻarbiy Ovrupaning Uygʻonish, oʻzligini anglay boshlash davrini eslatadi. Kundalik turmushdagi, tafakkurdagi anʼanaviylikning zamonaviylashuvi, demografik oʻsish, shaharlarning yiriklashuvi, texnologiyada, bank ishlarida munosabatlarning oʻzgarishi, yangi — tijoratchilar avlodining maydonga chiqishi, ishbilarmonlikning keng tarqalishi va boshqalar Uygʻonish davrining tavsifiy chizgilariga aylangan edi. Xorijiy tillarga, huquqshunoslikka, Vatan tarixiga qiziqishning ommaviy oʻsishi maktab va tarbiya maqsadini keskin oʻzgartirishning sharti boʻldi.

Germaniya tajribasining afzalliklari:

Germaniyada maktabgacha taʼlim asosan xususiy kunduzgi bolalar bogʻchalarida, kamroq esa mahalliy hokimiyat tomonidan tashkil etilgan muassasalarda taqdim etiladi. Maktabgacha taʼlim muassasalari “Kinderkrippen” (kreşlar), bolalarga qarash markazlari, bolalar bogʻchalari va kunduzgi parvarish markazlaridir. Cherkovlar, ijtimoiy yordam yoki ota-onalar uyushmalari kabi nodavlat tashkilotlarga bolalik taʼlimi xizmatlarini taklif qilishda ustuvorlik beriladi. Mahalliy hokimiyat organlari maktabgacha taʼlim xizmatlarini faqat xususiy tashabbuslar etishmasligi yoki yuqorida koʻrsatilgan provayderlarning yomon xizmatlari mavjud boʻlganda taklif qilishi mumkin. Maktabgacha taʼlim muassasalarining ish soatlari ota-onalar va rahbar xodimlar oʻrtasidagi hamkorlikda belgilanadi. Biroq, odatda, bolalar 7 soatlik kunlik bolalik taʼlimi va gʻamxoʻrligini, shu jumladan tushlik va baʼzan tushlik tanaffuslarini oladi. *Germaniya tajribasi maktabgacha taʼlimda tilga oʻrgatishni faqat lingvistik jarayon emas, balki ijtimoiy, axloqiy, emotsional va madaniy kompetensiyalarni shakllantiruvchi kompleks pedagogik tizim sifatida qaraydi.*

Yaponiya tajribasining afzalliklari:

Deyarli hamma MTT xususiy. Ularning orasida eng asosiy o'rinni elita bog'chalari egallaydi. Agar bola bunday MTTda tarbiyalansa uning kelajagi yetarlicha kafolatlangan deyishimiz mumkin. Chunki bu bog'chadan keyin bola maktabga undan keyin esa hech qanday imtihonsiz universitetga qabul qilinadi. Yaponiyaning "yochien" deb nomlanuvchi maktabgacha ta'lim tizimi mamlakat ta'lim tizimining muhim qismidir. Bu bolalarning ijtimoiy, hissiy va akademik rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ularni ta'limning keyingi bosqichlarida va undan keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Yochien tizimi uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mavjud va majburiy emas, lekin yapon bolalarining katta qismi qatnashadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari odatda mahalliy hokimiyat yoki xususiy tashkilotlar tomonidan boshqariladi va aholi turar joylarida joylashgan. Yaponiyadagi MTTlarda tarbiyaning eng muhim vazifasi bolani gapga quloq soladigan kattalar gapini bo'lmaydigan va xushxulq etib tarbiyalashdir. Yaponlar oilasida bola tarbiyasi haddan ziyod yumshoq bo'lib bolaga kamdan kam biror narsani taqiqlashadi. Ammo ko'cha-ko'ya tanimagan begona odamlar bilan iloji boricha kirishimlilik bilan gaplashish o'rgatiladi. Shuning uchun bog'chada ko'p marotaba virtual hayotdagi tanishuvlar, maner tarbiyasi o'rgatiladi. Bolalarga etiket normalari, ularni qachon va qanday sharoitda qo'llash o'rgatiladi.

Tilga o'rgatish jarayoni bolalarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki **kommunikativ, madaniy, ijtimoiy, axloqiy kompetensiyalarni** shakllantirishga qaratilishi zarur. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, til o'rganish jarayonida o'yin texnologiyalari, kommunikativ metod, multimedia vositalari, madaniy integratsiya va bolalar qiziqishiga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar eng yuqori samarani beradi.

Xulosa shuki: Tilga o'rgatish jarayonida ta'limiy va tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish xalqaro tajribalar asosida tashkil etilganda bolalarning:

- tilni oson o'zlashtirishi,
- ijtimoiy faol bo'lishi,
- madaniyatlararo muloqotga tayyor bo'lishi,
- axloqiy va emotsional kompetensiyalarining rivojlanishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avesto. Asqar Mahkam o'zbekcha tarjima. -T.:2001. 56-bet
2. Alisher Bolibekov "Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimining qiyosiy tahlil"
<https://intereuroconf.com/index.php/MSRAIDP/article/download/2673/2074/2063>
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
6. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23> Published Date: 2024-02-29<http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548>
7. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y